O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Xo‘raki uzumlarni sotish va tijorat sifatini nazorat qilish standarti

(FFV-19:2020, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV 19:2020 “Concerning the marketing and commercial quality control of Table Grapes” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, daromadlilikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashadi. BMT YIK standartlarini hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkor, import va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar qo‘llaydi. Ular yangi meva-sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun bizning http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html veb-saytimizga tashrif buyuring.

Xo‘raki uzumga oid ushbu qayta ko‘rib chiqilgan Standart 2020-yilda ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan (sessiyalararo tasdiqlash tartib-taomili) ECE/CTCS/WP.7/2020/5 hujjatiga asoslangan.

Standartning umumiy tuzilishiga (Standart Layout, 2017) muvofiqlashtirilgan.

Ushbu nashrdagi qo‘llanilgan atamalar va materiallarning taqdim etilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatining har qanday mamlakat, hudud, shahar yoki uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi yoxud ularning chegaralari yoki cheklovlarining belgilanishi borasida biron-bir fikr bildirishini anglatmaydi. Kompaniya nomlari yoki tijorat mahsulotlarining eslatib o‘tilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlashini anglatmaydi.

Barcha materiallardan erkin iqtibos keltirilishi yoki qayta nashr etilishi mumkin, biroq manbani ko‘rsatish so‘raladi. Har qanday fikr-mulohazalar yoki so‘rovlar bo‘yicha biz bilan quyidagi manzildan bog‘lanishingizni so‘raymiz: Agricultural Standards Unit Economic Cooperation and Trade Division United Nations Economic Commission for Europe Palais des Nations CH-1211 Geneva 10, Switzerland E-mail: agristandards@unece.org

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

XO‘RAKI UZUMLARNI SOTISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ, ОТНОСИТЕЛЬНО МАРКЕТИНГА И КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА СТОЛОВОГО ВИНОГРАДА

CONCERNING THE MARKETING AND QUALITY CONTROL OF TABLE GRAPES

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026-yil.

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi uzilgan holatda yetkazib beriladigan Vitis vinifera L. turiga mansub navli (madaniy) xo‘raki uzumlarga nisbatan qo‘llaniladi; sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan xo‘raki uzumlar bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Standartdan ko‘zlangan maqsad — saralash va qadoqlash jarayonlaridan keyin xo‘raki uzumlar javob berishi kerak bo‘lgan sifat talablarini belgilashdir.

Shunday bo‘lsa-da, agar standart eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

- yangilik va taranglikning biroz yo‘qolishi;
- “Extra” (Oliy) navdan tashqari boshqa navlarga ajratilgan mahsulotlar uchun — ularning tabiiy rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu mahsulotlarni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday tarzda namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki muomalaga kiritishi (sotishi) mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday muvofiqlikni ta’minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi**.**

A. Minimal talablar1

Barcha navlarda, har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan og‘ishlarni hisobga olgan holda, uzum shodalari va uzum donalari quyidagicha bo‘lishi kerak:

- sog‘lom bo‘lishi; iste’molga yaroqsiz bo‘lishiga olib keladigan darajada chirigan yoki sifati yomonlashgan mahsulotlar bundan mustasno;
- toza bo‘lishi, har qanday ko‘rinadigan yot moddalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- zararkunandalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- zararkunandalar yetkazgan shikastlardan deyarli xoli bo‘lishi;
- tashqi tomondan g‘ayritabiiy namlikdan xoli bo‘lishi;
- har qanday yot hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bundan tashqari, uzum donalari quyidagi talablarga javob berishi shart:

- butun (shikastlanmagan) bo‘lishi;
- yaxshi shakllangan bo‘lishi;
- meyorda rivojlangan bo‘lishi.
- Quyosh nuridan hosil bo‘lgan pigmentatsiya (dog‘lar/g‘adir-budirliklar) nuqson hisoblanmaydi.
- Xo‘raki uzumning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:
- tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
- belgilangan manzildagi joyga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Yetilish talablari[1]

Xo‘raki uzumlar yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi hamda qoniqarli pishib yetilganlik va/yoki yetilish darajasini namoyon etishi kerak. Ushbu talabga javob berish uchun mevaning refraktometrik ko‘rsatkichi kamida 16° Briks bo‘lishi shart. Refraktometrik ko‘rsatkichi pastroq bo‘lgan mevalar, agar ulardagi shakar/kislota nisbati quyidagi ko‘rsatkichlarga teng yoki yuqori bo‘lsa, qabul qilinadi:

- Briks darajasi 12.5° dan yuqori yoki teng va 14° Brix dan past bo‘lsa — 20:1 nisbatda;
- Briks darajasi 14° dan yuqori yoki teng va 16° Brix dan past bo‘lsa — 18:1 nisbatda.

C. Klassifikatsiya

Xo‘raki uzumlar quyida belgilanganidek uchta navga ajratiladi:

(i) “Extra” (Oliy) nav

Ushbu navga mansub xo‘raki uzumlar yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular yetishtirilgan hudud xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z naviga xos barcha belgilarga ega bo‘lishi shart.

Uzum donalari tarang, bandiga mustahkam yopishgan, shoda bo‘ylab bir tekis joylashgan bo‘lishi va ularning ustidagi tabiiy g‘ubori (mumi) deyarli shikastlanmagan bo‘lishi lozim.

Mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish muddatiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir etmaydigan chizg‘ilar ko‘rinishidagi yuzaki nuqsonlardan tashqari, ularda hech qanday kamchiliklar bo‘lmasligi kerak.

(ii) I nav

Ushbu navga mansub xo‘raki uzumlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular yetishtirilgan hududni hisobga olgan holda, o‘z naviga xos xususiyatlarni aks ettirishi shart.

Uzum donalari tarang, bandiga mustahkam yopishgan va imkon qadar tabiiy g‘uborini yo‘qotmagan bo‘lishi lozim. Biroq, ularning shoda bo‘ylab joylashishi “Extra” navidagiga qaraganda biroz notekisroq bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanishiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmaslik sharti bilan quyidagi chizg‘ilar ko‘rinishidagi biroz nuqsonlarga ruxsat berilishi mumkin:

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- shaklidagi biroz nuqson;
- rangidagi biroz nuqsonlar;
- faqat po‘stiga ta’sir qilgan juda yengil quyosh kuyishidir (dog‘lar);
- po‘stidagi biroz nuqsonlar.

(iii) II nav

Bu navga yuqori navlar talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga loyiq keladigan xo‘raki uzumlar kiradi.

Uzum shodalari yetishtirilgan hududni hisobga olgan holda, navning asosiy xususiyatlariga zarar yetkazmaslik sharti bilan shakli, rivojlanishi va rangida biroz nuqsonlarga ega bo‘lishi mumkin.

Uzum donalari yetarlicha tarang va bandiga yetarli darajada mustahkam yopishgan bo‘lishi, shuningdek, imkon qadar o‘z g‘uborini saqlab qolgan bo‘lishi kerak. Ularning shoda bo‘ylab joylashishi I navdagiga qaraganda notekisroq bo‘lishi mumkin.

Xo‘raki uzum o‘zining sifati, saqlanishi va tashqi ko‘rinishi bo‘yicha asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga ruxsat berilishi mumkin:

- shaklidagi nuqsonlar;
- rangidagi nuqsonlar;
- faqat po‘stiga ta’sir qilgan biroz quyosh kuyishidir;
- biroz ezilgan (shikastlangan) joylar;
- po‘stidagi nuqsonlar.

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

O‘lcham shingil massasi bilan belgilanadi

Oliy va I navlar uchun shingilning minimal massasi 75 grammni tashkil etishi lozim. Ushbu talab barcha navlardagi bir marta iste’mol qilishga mo‘ljallangan qadoqlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Mahsulot muomalasining barcha bosqichlarida, ko‘rsatilgan nav talablariga muvofiq kelmaydigan mahsulotlar uchun har bir turkumda sifat va o‘lcham ko‘rsatkichlari bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga ruxsat etiladi.

---

[1] Fransiya va Amerika Qo‘shma Shtatlarining maxsus sharhi (e’tirozi): “UNECEning Xo‘raki uzum standartida minimal yetilish talablariga nisbatan qo‘llanilgan yagona yondashuv barcha geografik ishlab chiqarish

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

mintaqalaridagi barcha xo‘raki uzum navlarining minimal yetilish talablarini hamda xo‘raki uzum sanoati amaliyotini to‘g‘ri aks ettirmaydi.”

A Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

(i) “Oliy” Class

Mazkur nav talablariga muvofiq kelmaydigan, biroq I nav talablariga javob beradigan shingillarning jami yo‘l qo‘yiladigan chetlanishi massa ulushi bo‘yicha 5 foiz miqdorida ruxsat etiladi. Ushbu chetlanish chegarasida II nav sifati talablariga muvofiq keladigan mahsulotlarning jami ulushi 0,5 foizdan oshmasligi lozim.

(ii) Class I

Mazkur nav talablariga muvofiq kelmaydigan, biroq II nav talablariga javob beradigan shingillarning jami yo‘l qo‘yiladigan chetlanishi massa ulushi bo‘yicha 10 foiz miqdorida ruxsat etiladi. Ushbu chetlanish chegarasida II nav sifati talablariga ham, minimal talablarga ham muvofiq kelmaydigan mahsulotlarning yoki chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlarning jami ulushi 1 foizdan oshmasligi lozim.

Yuqorida ko‘rsatilgan chetlanishlarga qo‘shimcha ravishda, shingildan/shodadan uzilgan to‘kilgan mevalarning sog‘lom va butun bo‘lishi sharti bilan, ularning jami ulushiga massa bo‘yicha maksimal 10 foiz miqdorida ruxsat etiladi.

(iii) Class II

Mazkur nav talablariga ham, minimal talablarga ham muvofiq kelmaydigan shingillarning jami yo‘l qo‘yiladigan chetlanishi massa ulushi bo‘yicha 10 foiz miqdorida ruxsat etiladi. Ushbu chetlanish chegarasida chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlarning jami ulushi 2 foizdan oshmasligi lozim.

Yuqorida ko‘rsatilgan yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga qo‘shimcha ravishda, shingildan/shodadan uzilgan rezavor mevalarning sog‘lom va butun bo‘lishi sharti bilan, ularning jami miqdoriga massa ulushi bo‘yicha maksimal 10 foiz darajasida ruxsat etiladi.

B. O‘lcham bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

Barcha navlar uchun (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa): o‘lcham talablariga muvofiq kelmaydigan shingillarning jami yo‘l qo‘yiladigan chetlanishi massa ulushi bo‘yicha 10 foiz miqdorida ruxsat etiladi. Har bir chakana savdo qadog‘ida (bir marta iste’mol qilishga mo‘ljallangan qadoqlardan tashqari), agar shingil belgilangan sinfning (navning) barcha boshqa talablariga javob bersa, vaznni muvofiqlashtirish (to‘g‘rilash) uchun massasi 75 grammdan kam bo‘lgan bitta shingil bo‘lishiga ruxsat etiladi.

V. Taqdimotga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq ichidagilar bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, navga, sifatga va yetilish darajasiga ega bo‘lgan shingillardan iborat bo‘lishi shart.

“Oliy“ nav uchun shingillar o‘lchami va rangi bo‘yicha taxminan bir xil bo‘lishi shart.

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Biroq, sifati hamda tegishli ravishda har bir navning kelib chiqishi bo‘yicha bir xillik talablariga rioya qilingan taqdirda, tashqi ko‘rinishi bo‘yicha keskin farq qiluvchi xo‘raki uzum navlarining aralashmasini bir qadoqqa birgalikda qadoqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Qadoq ichidagi mahsulotning ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga to‘liq mos kelishi shart.

B. Qadoqlash

Xo‘raki uzum mahsulotning zarur darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi shart.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi shart. Materiallardan, xususan, tijorat ma’lumotlari tushirilgan qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga, basharti matbaa kodi yoki yorliqlash zararsiz bo‘lmagan bo‘yoq yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lishi sharti bilan yo‘l qo‘yiladi.

Mahsulotga yakka tartibda yopishtiriladigan yorliqlar shunday bo‘lishi kerakki, olib tashlanganda o‘zidan yelimning ko‘zga ko‘rinadigan izlarini qoldirmasligi, shuningdek, mahsulot po‘stining shikastlanishiga olib kelmasligi lozim.

Qadoqlar har qanday yot moddalardan xoli bo‘lishi shart, biroq maxsus taqdimot shakli sifatida shingilning bandida uzunligi 5 smdan oshmaydigan tok novdasi bo‘lagi qoldirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[2] tashqi tomondan yaqqol ko'rinadigan, o'chmaydigan qilib va tushunarli yozilgan, bir tomonda guruhlangan harflar bilan ko'rsatilgan quyidagi ma'lumotlar (rekvizitlar) bo'lishi shart:

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo'natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va jismoniy manzili (masalan: ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va agar kelib chiqqan mamlakatdan farq qilsa, davlat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llovchi mamlakat UNECE (BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi) ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lsa, milliy organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi[3].

B. Mahsulotning tur

- Agar qadoq ichidagi mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, “Xo‘raki uzum”.
- Navning nomi. Tashqi ko‘rinishi jihatidan aniq farq qiladigan turli navdagi xo‘ra uzumlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, ushbu turli navlarning nomlari.

Navning nomi sinonimi bilan almashtirilishi mumkin. Tijorat nomi[4] faqat nav yoki uning sinonimiga qo‘shimcha ravishda berilishi mumkin.

[2] Ushbu tamg’alash talablari tashqi qadoqlar ichida joylashtirilgan chakana savdo qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, ular yakka tartibda (alohida-alohida) taqdim etiladigan chakana savdo qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan tatbiq etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI#71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi [ishlab chiqaruvchining] nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgi qo‘llanilgan taqdirda, “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki unga tenglashtirilgan qisqartmalar)” degan ko‘rsatkich ushbu kodli belgi bilan bevosita bog‘liq holda (yonma-yon) ko‘rsatilishi shart, shuningdek, agar ushbu davlat mahsulot kelib chiqqan mamlakat bo‘lmasa, kodli belgidan oldin [kodni] tan olgan mamlakatning ISO 3166 (alfa) standarti bo‘yicha mamlakat/hudud kodi qo‘yilishi kerak.

C. Mahsulotning kelib chiqish

- Kelib chiqish mamlakati[5] va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tuman yoki milliy, min-taqaviy mahalliy joy nomi.
- Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan, tashqi ko‘rinishi bo‘yicha keskin farq qiluvchi xo‘ra uzum navlari aralashmasi bo‘lgan taqdirda har bir kelib chiqqan mamlakat to‘g‘risidagi ma’lumot tegishli nav nomining yonida ko‘rsatilgan bo‘lishi shart.

D. Tijorat tavsiflari

- Class
- Zarur hollarda “Bir marta iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan, vazni 75 grammdan kam bo‘lgan shingillar” yoki unga tenglashtirilgan nom.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1961-yilda qabul qilingan

Oxirgi marta 2020-yilda qayta ko'rib chiqilgan

2017-yilgi Standart namunasini muvofiqlashtirilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Meva va sabzavotlar bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi doirasida ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha rasmli tushuntirish risolasi nashr etilgan. Ushbu nashrni OECD kitob do‘konining www.oecdbookshop.org veb-saytidan olish mumkin.

4 Savdo nomi talabnoma topshirilgany oki ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisi yoxud har qanday boshqa tijorat nomi bo‘lishi mumkin.

5To‘liq nomi yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #71YN9ZAHKR - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI